



UDK: 355.48:069(575.1)(091)

Gulnoza J. USMONOVA,

Mustaqil tadqiqotchi, Turizm qo'mitasi huzuridagi Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: gulnoza.usmanova.89.89@mail.ru, ORCID:0009-0006-8240-2434

PhD, k.i.x J.Peremkulov taqrizi asosida

TURKISTONDA HARBIY TARIXIY MEROSNI MUZEYLASHTIRISH JARAYONINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda harbiy tarixiy merosni muzeylashtirish jarayonining shakllanish bosqichlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati sharoitida tashkil etilgan dastlabki muzeylarning harbiy kolleksiyalari, ularning shakllanish manbalari, ilmiy ahamiyati hamda zamonaviy harbiy muzeyshunoslik rivojiga ko'rsatgan ta'siri yoritiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi hujjatlari, XIX asr oxiri va XX asr boshlariga oid tarixiy manbalar hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida Turkistondagi harbiy kolleksiyalarning shakllanish omillari tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijasida harbiy tarixiy merosni saqlash va muzeylashtirish jarayoni nafaqat mustamlakachilik siyosatining mahsuli, balki bugungi harbiy muzeylar fondlarini shakllantirishda muhim tarixiy bosqich bo'lgani ilmiy asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Harbiy tarix, muzeylashtirish, Turkiston, qurol-aslaha, harbiy kolleksiya, muzey fondi, Rossiya imperiyasi, harbiy meros, arxiv hujjatlari, harbiy muzey.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ МУЗЕЕФИКАЦИИ ВОЕННО-ИСТОРИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ В ТУРКЕСТАНЕ (КОНЕЦ XIX – НАЧАЛО XX ВВ.)

Аннотация

В данной статье будет проведен научный анализ этапов становления музеефикации военно – исторического наследия в Туркестане в конце XIX-начале XX века. Освещаются военные коллекции первых музеев, созданных в условиях колониальной политики Российской империи, источники их формирования, научное значение и влияние на развитие современного военного музееведения. На основе документов Центрального государственного архива Республики Узбекистан, исторических источников конца XIX-начала XX веков и современных научных исследований анализируются факторы формирования военных коллекций в Туркестане. В результате исследования дается научное обоснование того, что процесс сохранения и музеефикации военно-исторического наследия является не только продуктом колониальной политики, но и важным историческим этапом в формировании фондов современных военных музеев.

Ключевые слова: Военная история, музеефикация, Туркестан, вооружение, военная коллекция, музейный фонд, Российская империя, военное наследие, архивные документы, военный музей.

FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE MUSEUMIFICATION OF MILITARY HISTORICAL HERITAGE IN TURKESTAN (LATE XIX - EARLY XX CENTURY)

Annotation

In this article, the stages of the formation of the process of museification of military historical heritage in Turkestan of the late XIX - early XX centuries are scientifically analyzed. The military collections of the early museums established in the conditions of the colonial policy of the Russian Empire, their sources of formation, scientific significance and their influence on the development of modern military museology are highlighted. On the basis of documents of the central state archive of the Republic of Uzbekistan, historical sources dating back to the late 19th and early 20th centuries and modern scientific research, factors of formation of military collections in Turkestan are analyzed. As a result of the study, it is scientifically substantiated that the process of preserving and museumizing military historical heritage is not only a product of colonial policy, but also an important historical stage in the formation of the funds of today's Military Museums.

Key words: Military history, museumization, Turkestan, armor, Military Collection, Museum Foundation, Russian Empire, military heritage, archival documents, Military Museum.

Kirish. O'zbekiston hududida harbiy ish tarixi uch ming yildan ortiq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan bo'lib, ushbu tarixiy jarayonlar natijasida yaratilgan hujum va himoya qurol-aslahalari, jangovar sovutlar, harbiy bayroqlar hamda mudofaa inshootlari bugungi kunda milliy madaniy merosning ajralmas qismi sifatida muzeylarda saqlanib kelinmoqda [6;10].

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida o'lkada muzeylar tashkil etish ishlari boshlangan [15]. Dastlabki

muzeylar tabiiy fanlar, etnografiya va arxeologiya yo'nalishlari bilan bir qatorda harbiy tarixiy kolleksiyalarni ham shakllantirishga alohida e'tibor qaratgan [4].

Ushbu kolleksiyalar tarkibiga Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklaridan olingan qurol-aslahalar, sovutlar, dubulg'alar, jangovar bayroqlar, harbiy xaritalar va boshqa noyob eksponatlar kiritilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Harbiy tarixiy merosni muzeylashtirish masalalari jahon muzeyshunosligida

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlab alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi.

Harbiy tarixiy merosni saqlash va ommalashtirishning zamonaviy yondashuvlari UNESCO hamda ICOM tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlarda ham o'z aksini topgan. Ushbu hujjatlarda muzey fondlarini ilmiy kataloglashtirish, raqamlashtirish va madaniy merosni keng jamoatchilik uchun ochiq qilish muzeylar faoliyatining ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston tarixshunosligida harbiy ish tarixi va harbiy san'at taraqqiyoti masalalari D.X. Ziyayeva, J.H. Ismoilova, L.G. Levteyeva, A. Muhammadjonov, Sh. Vohidov, A. Sagdullayev va boshqa olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mazkur ilmiy ishlarda O'zbekiston hududida qadimgi davrlardan boshlab harbiy tizimning rivojlanishi, qurol-aslahalar evolyutsiyasi, qo'shin tuzilishi va harbiy san'at taraqqiyoti batafsil tahlil qilingan. Biroq ushbu tadqiqotlarda harbiy tarixiy ashyolarning muzeylashtirish jarayoni alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan.

Turkistonda muzeylar faoliyati bo'yicha B.V. Lunin, N.S. Sodiqova, M.M. Virskiy, A.M. Malikov, S.M. Mustafayev va boshqa olimlarning ilmiy ishlari muhim manba hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlarda Turkiston o'lkasidagi dastlabki muzeylarning tashkil etilishi, ularning fondlarini shakllantirish, ekspozitsiyalarni yaratish va ilmiy faoliyati yoritilgan.

Ayniqsa, B.V. Luninning tadqiqotlari Turkiston o'lkasida muzey ishini shakllanish tarixini o'rganishda fundamental manbalardan biri hisoblanadi [15].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, tarixiy-taqqoslash, manbashunoslik, arxivshunoslik hamda muzeyshunoslik metodlaridan kompleks ravishda foydalanildi.

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlar, XIX-XX asr boshlariga oid rasmiy nashrlar, ilmiy adabiyotlar va muzey fondlari tavsiflari qiyosiy tahlil qilindi. Bu esa Turkistonda harbiy tarixiy muzeylashtirish jarayonining rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda yoritish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Turkistonda harbiy tarixiy kolleksiyalar shakllanishining asosiy bosqichi Rossiya imperiyasining o'lkani bosib olishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. 1865-1885-yillar davomida Toshkent, Samarqand, Qo'qon va Xiva hududlarida olib borilgan harbiy yurishlar natijasida qo'lga kiritilgan ko'plab qurol-aslahalar, harbiy jihozlar, bayroqlar va boshqa ashyolar keyinchalik muzey fondlariga topshirilgan.

1876-yilda Toshkentda tashkil etilgan Turkiston xalq muzeyi [15;16] (hozirgi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi) o'lkadagi dastlabki ilmiy muzey sifatida faoliyat boshladi. Muzey tashkil etilgan ilk davrlardan o'q harbiy tarixga oid kolleksiyalarni shakllantirishga katta e'tibor qaratildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi hujjatlari XIX asr oxiri -XX asr boshlarida muzey fondlariga topshirilgan harbiy eksponatlar tarkibi, ularning kelib chiqishi va hisobga olinishi haqida muhim birlamchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi [4-5]. Mazkur hujjatlar ilgari kompleks tarzda harbiy muzeyshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilmaganligi ushbu maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Muzey fondiga Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklaridan olingan qilichlar, shamshirlar, kamonlar, dubulg'alar, sovutlar, qalqonlar, pilta miltiqlar va boshqa jangovar buyumlar topshirildi.

Arxiv hujjatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 1883-1884-yillarda [4] Turkiston general-gubernatorligi tomonidan muzey fondiga harbiy tarixga oid qimmatli eksponatlar muntazam

ravishda topshirib borilgan. Jumladan, dubulg'alar, temir sovutlar, kamonlar, ellik bir dona o'q, zanjirli zirhlar hamda Turkiston o'lkasining harbiy tarixini aks ettiruvchi fotoalbomlar muzey kolleksiyasini sezilarli darajada boyitgan.

Mazkur hujjatlar bugungi kunda ham O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanmoqda va harbiy muzeyshunoslik tarixini o'rganishda muhim birlamchi manba vazifasini bajaradi.

Samarqand muzeyi [17] fondlari ham harbiy tarixiy eksponatlarga boy bo'lgan. Ayniqsa, 1868-yildagi Samarqand jangidan keyin qo'lga kiritilgan qurol-aslahalar muzey ekspozitsiyasining asosini tashkil etgan. Ekspozitsiyalarda o'qotar qurollar, zambarak qismlari, qilichlar, nayzalar, kamonlar, sovutlar hamda harbiy xaritalar namoyish etilgan.

Shuningdek, Xiva va Qo'qon xonliklaridagi [20] saroy xazinalari ham harbiy tarixiy buyumlarni saqlashning muhim markazlari hisoblangan. XX asr boshlarida ushbu kolleksiyalarning bir qismi Toshkent, Sankt-Peterburg va boshqa muzeylarga olib ketilgan bo'lsa, ayrim eksponatlar mahalliy muzeylar fondlarida saqlanib qolgan. Bu jarayon keyinchalik O'zbekistondagi harbiy muzeylar fondlarini shakllantirishda muhim tarixiy asos bo'lib xizmat qilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Turkistondagi dastlabki harbiy muzey kolleksiyalari bir vaqtning o'zida ikki xil vazifani bajargan. Birinchidan, ular Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatini targ'ib qilish vositasi sifatida shakllantirilgan.

Ikkinchidan esa, bugungi kungacha yetib kelgan ko'plab noyob qurol-aslahalar, harbiy kiyim-kechaklar, zirhlar va tarixiy hujjatlarning saqlanib qolishiga xizmat qilgan. Aynan shu jihat mazkur kolleksiyalarning zamonaviy muzeyshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Muhokama. Turkistonda harbiy tarixiy merosni muzeylashtirish jarayoni tarixiy nuqtayi nazardan murakkab va ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, XIX asr oxirida tashkil etilgan dastlabki muzeylarning harbiy kolleksiyalari, avvalo, Rossiya imperiyasining siyosiy va mafkuraviy manfaatlariga xizmat qilgan.

Bosib olingan hududlardan olib kelingan qurol-aslahalar, jangovar bayroqlar va harbiy anjomlar imperiyaning muzei ustunligini namoyish etish vositasi sifatida ekspozitsiyalarda joylashtirilgan.

Biroq mazkur jarayonni faqat mustamlakachilik siyosatining mahsuli sifatida baholash bir tomonlama yondashuv bo'ladi. Chunki aynan ushbu muzeylar fondlarida bugungi kungacha saqlanib qolgan yuzlab noyob harbiy tarixiy buyumlar ilmiy tadqiqotlarning asosiy manbalaridan biriga aylandi. Agar mazkur eksponatlar o'z vaqtida yig'ilmaganida, ularning aksariyati tabiiy yemirilish, urushlar yoki noqonuniy savdo oqibatida yo'qolib ketishi ehtimoldan xoli emas edi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda harbiy muzeylar faqat tarixiy eksponatlarni namoyish etish bilan cheklanmaydi. Ular ilmiy markaz, ta'lim muassasasi va tarixiy xotirani shakllantiruvchi muhim institut sifatida faoliyat yuritadi. Jumladan, Buyuk Britaniyadagi Imperial War Museum, Fransiyadagi Musée de l'Armée, Turkiyadagi Harbiye - Harbiy Muzeyi hamda Rossiyadagi Markaziy Qurolli Kuchlar muzeyi zamonaviy interaktiv texnologiyalar asosida tashkil etilgan [27] bo'lib, harbiy tarixni keng jamoatchilikka yetkazishda muhim o'rin tutmoqda.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda harbiy tarixiy merosni asrash va ommalashtirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Qurolli Kuchlar davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi hamda hududiy o'lkashunoslik muzeylarida saqlanayotgan harbiy kolleksiyalarni ilmiy kataloglashtirish,

raqamlashtirish va zamonaviy ekspozitsiyalar yaratish bo'yicha yangi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Mazkur tadqiqot natijalari Turkistondagi ilk harbiy kolleksiyalarni shakllantirish jarayoni bugungi O'zbekiston harbiy muzeylari fondlarini tashkil etishda tarixiy poydevor vazifasini bajarganligini ko'rsatadi. Shu bois mazkur kolleksiyalarni zamonaviy muzeysunoslik yondashuvlari asosida qayta o'rganish, ilmiy kataloglarini yaratish va xalqaro ilmiy muomalaga kiritish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari Turkistonda harbiy tarixiy muzeylashtirish jarayoni XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bosqichma-bosqich shakllanganligini ko'rsatadi. Dastlabki muzeylar faoliyatida harbiy kolleksiyalar alohida o'rin egallagan bo'lib, ularning asosini Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklaridan keltirilgan qurol-aslahalar, harbiy kiyimlar, zirhlar, dubulg'alar, jangovar bayroqlar va boshqa harbiy tarixiy buyumlar tashkil etgan.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Rossiya imperiyasi tomonidan tashkil etilgan muzeylarning harbiy bo'limlari siyosiy-mafkuraviy maqsadlarga xizmat qilgan bo'lsa-da, aynan shu muzeylar orqali O'rta Osiyo xalqlarining ko'plab noyob harbiy merosi saqlanib qolgan.

Arxiv hujjatlari asosida olib borilgan tahlillar Turkiston o'lkasi muzeylari fondlari muntazam ravishda yangi harbiy eksponatlar bilan boyitib borilganligini ko'rsatadi. Mazkur jarayon bugungi O'zbekiston harbiy muzeylari fondlarini shakllantirishning tarixiy asosini tashkil etadi.

Bugungi kunda mazkur tarixiy merosni raqamlashtirish, 3D formatda hujjatlashtirish, elektron kataloglar yaratish, GIS texnologiyalarini qo'llash va virtual ekspozitsiyalarni tashkil etish harbiy muzeysunoslikning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bugungi kunda xorijda saqlanayotgan O'zbekistonning noyob kolleksiyalari qatorida harbiy-

qurol aslahalar han ozining munosib o'rmini egallaydi. Rossiyaning Sankt-Peterburg shaxridagi Ermitaj muzeyida ham XIX asrga oid O'rta Osiyo mahalliy ustalari tomonidan kumush va feruzadan yasalgan qilichlar g'iloqlari bilan, Xiva xonligiga tegishli ov miltiqlari va bir qancha egar jabduqlar butun dunyo nigohida namoyishga qo'yilgan. Ushbu eksponatlar orasida O'rta Osiyoga tegishli XVIII asrga oid dubulg'a va qalqon o'zining noyobliligi bilan ajralib turadi.



Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida harbiy tarixiy muzeylarni rivojlantirishda xalqaro tajribalarni joriy etish, muzey fondlarini ilmiy pasportlashtirish, zamonaviy konservatsiya usullaridan foydalanish hamda yosh avlodning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirishda tarixiy kolleksiyalardan samarali foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot natijalari O'zbekiston harbiy muzeysunosligi tarixini yanada chuqur o'rganish, yangi ilmiy izlanishlarni olib borish hamda milliy harbiy merosni xalqaro miqyosda targ'ib etish uchun nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-maydagi PQ-2995-son "2017–2021-yillarda muzeylar faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2008.
5. Arxiv manbalari
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi. I-1 fond, 27-ro'yxat, 1130-ish. Turkiston general-gubernatori kanselyariyasining Turkiston o'lkasi muzeyiga topshirilgan harbiy buyumlar ro'yxati. 1883–1884-yillar.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi. I-1 fond, 27-ro'yxat. Turkiston o'lkasi muzeyi faoliyatiga oid hujjatlar.
8. O'zbek tilidagi adabiyotlar
9. Ziyayeva D.X. O'zbekistonda harbiy ish tarixidan. – Toshkent: Sharq, 2012. – 256 b.
10. Ismoilova J.H., Levteyeva L.G. O'zbekiston harbiy san'ati tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – 368 b.
11. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2017.
12. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. – Toshkent: Fan, 2019.
13. Vohidov Sh. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
14. Rasulov A. O'zbekistonda muzeysunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
15. Xolmatov A. Madaniy merosni muhofaza qilish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
16. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi katalogi. – Toshkent, 2022.
17. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlat muzeyi katalogi. – Toshkent, 2021.
18. Rus tilidagi adabiyotlar
19. Лунин Б.В. Из истории изысканий научно-краеведческих обществ Узбекистана (конец XIX – начало XX вв.). – Ташкент, 1957.
20. Садыкова Н.С. Музейное дело в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1975.
21. Вирский М.М. Самаркандский музей и его задачи // Справочная книжка Самаркандской области. – Самарканд, 1897.
22. Мустафаев С.М. Военное дело народов Средней Азии в экспозициях первых музеев Туркестана // Вестник археологии и этнографии Узбекистана. – 2012. – №2.
23. Маликов А.М. История музейного дела в Самарканде // Общественное мнение. Права человека. – 2018. – №3.
24. Караниязов Б. Из истории создания музеев в Хорезме и Ферганской долине // Общественные науки в Узбекистане. – 1989. – №5.
25. Туркестанский сборник. Том 345. – Санкт-Петербург, 1885.
26. Артамонов М.И. Военная история народов Средней Азии. – Москва, 1968.
27. Пугаченкова Г.А. Искусство Средней Азии. – Москва, 1979.
28. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарты. – Москва, 1962.
29. Массон М.Е. Археологические исследования Средней Азии. – Ташкент, 1968.
30. Xorijiy adabiyotlar
31. Lord B., Lord G.D. The Manual of Museum Planning. Rowman & Littlefield, 2019.
32. Bennett T. The Birth of the Museum. Routledge, London, 2017.
33. Black G. The Engaging Museum. Routledge, London, 2012.
34. ICOM. ICOM Code of Ethics for Museums. Paris, 2023.
35. UNESCO. Recommendation concerning the Protection and Promotion of Museums and Collections. Paris, 2015.